

YANGI DAVR O'ZBEK TEATR SAN'ATIDA MILLIY MADANIY MEROOSNING O'RNI

Karima Jabbarova

O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatr san'ati"
kafedrasi o'qituvchisi,

Islom Berdimurodov

O'zDSMI Teatr san'ati fakulteti tyutori.

ANNOTATSIYA

Teatr shunday bir ilohiy dargohki, u odamlarning qalbiga beqiyos ta'sir o'tkazib ularni muqim ezgulik va oljanoblikka chorlaydi. Chunki sahna san'atining odamlarga nafaqat zavq-shafq baxsh etishi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ushbu maqolada san'at turlari orasida eng qadimiylardan, tarbiya manbasi bo'lgan teatr san'atida milliy madaniy merosning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qo'g'irchoq teatri san'ati, integratsiya, ta'lim, estetik tarbiya, madaniy faoliyat, innovatsiya.

АННОТАЦИЯ

Театр-это такой божественный дар, который, оказывая неизмеримое влияние на сердца людей, призывает их к совершенной доброте и благородству. Потому что то, что исполнительское искусство может не только доставлять людям удовольствие, но и быть источником национальной гордости, национальной гордости, мощным средством воспитания,-это факт, который не требует доказательств. В данной статье рассматривается роль национального культурного наследия в театральном искусстве, являющегося одним из древнейших среди видов искусства, источником воспитания.

Ключевые слова: Искусство кукольного театра, интеграция, воспитание, эстетическое воспитание, культурная деятельность, инновации.

ABSTRACT

The theater is such a divine gift that, exerting an immeasurable influence on the hearts of people, calls them to perfect kindness and nobility. Because the fact that performing arts can not only give people pleasure, but also be a source of national pride, national pride, a powerful means of education, is a fact that does not require

proof. This article examines the role of national cultural heritage in theatrical art, which is one of the oldest among the types of art, a source of education.

Key words: The art of puppet theater, integration, education, aesthetic education, cultural activity, innovation.

“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O’zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Teatr san’ati ham madaniy meros sanalib bugungi kunga qadar yetib kelgan muqaddas kitoblar va mumtoz adabiyot namunalariga asoslangan asarlarning sahna san’ati taraqqiyotidagi o’rni beqiyosdir. Milliy madaniy merosning teatr san’ati va yozma yodgorliklardek ikki ulkan hodisaning o’zaro munosabatlari, san’atlarning o’zaro birikuvi (integratsiyasi) hamda biri ikkinchisidan quvvat olib, yangi badiiy kashfiyotlarni yuzaga keltirishi masalalari azaldan ahamiyatli hisoblangan. Teatr va mumtoz adabiyot namunalarining birikishi ko’plab ijobiy xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Bunda falsafiy-romantik yo‘nalishni tiklash, sahnada yangrayotgan so‘zning beqiyos qudratini ko’rsatish, umumbashariy mavzular borasida fikr-mushohada yuritish imkonini yanada kengaytiradi.

Epos – insoniyat tafakkuriga xos turfa olamni o‘zida jo qilgan bebafo manbadir. Shu bois ham xalq ma’naviy mulkining gultoji bo‘lmish epik ijodiyot namunalari adabiyot va san’at taraqqiyoti uchun hamisha, har qanday davrda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Asrlar qa’ridan bizning kunlargacha rivoyat, afsona, ertak, hikoyat tariqasida yetib kelgan epik ijodiyot nihoyatda sermazmun va badiiy barkamolki, bu ma’naviy qadriyatlardan har bir avlod o‘z zamonasi ehtiyojiga ko‘ra bahramand bo‘ladi.⁴³

Xalq badiiy merosi milliy qadriyat sifatida urf-odat, madaniyat, insonlar o‘rtasidagi o’zaro munosabatlardagi o‘ziga xos jihatlarni, xalqimizga xos betakror fazilat va sifatlarni ifoda etadi. Xalq qahramonlari talqini vositasida Vatanga, tug‘ilgan yerga muhabbat, insoniy burch va mas’uliyatni anglash, ota-onaga hurmat, suyukli yorga sadoqat, umum manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yish, el-yurt xizmatiga hamisha shay turish, xalqning og‘irini yengil qilish, himmatli va saxovatli bo‘lish kabi

⁴³ O.Tojiboyeva Epos va teatr. O’zbek teatr san’atida milliy madaniy merosning o‘rni. Ikkinci kitob – Toshkent. “SAN’AT” jurnal nashriyoti – 208 b.

fazilatlar o'rnak sifatida namoyish etilgan. Xalq badiiy madaniyati namunalari yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda har qanday davrda eskirmaydigan vosita, o'ziga xos odob-axloq kodeksidir. Shu boisdan ham adabiyot va san'at xalq badiiy madaniyatidan ruhlanadi, ilhom oladi, ta'sirlanadi. Bu taassurotlar ijod uchun katta shart-sharoit, imkoniyat yaratadi.

Xalqimizning badiiy meros namunalari teatr san'atiga integratsiyalasharkan, undagi xususiyatlar ulkan yangiliklar hisobiga kengayadi hamda rivojlanadi. O'zbek teatr san'atida bu yo'naliшhga o'tgan asrda asos solingan va tamal toshi qo'yilgan edi. XX asrning 20-30 yillaridan boshlab og'zaki ijod va unga asoslangan yozma adabiyot, folklor va mifologik manbalar sahnaviy talqin topib, epik meros namunalaridan unib chiqqan spektakllar sahna dostonchiligi deya atalgan o'ziga xos yo'naliшhga asos soldi. XX asrda o'zbek teatrshunosligiga kirib kelgan va keng qo'llanilgan "sahna dostonchiligi" atamasi nihoyatda serqatlamdir. "Sahna dostonchiligi" atamasi O'zbekiston teatrshunosligining darg'alari, ustoz olimlar Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Toshpo'lat Tursunovlar ilmiy merosida keng qo'llanilgan bo'lib, xarakteri va yetakchi sifatlari ochib berilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan qahramonlik va romanik dostonlariga asoslangan o'zbek teatrining "Alpomish", "Ravshan va Zulkumor", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Tohir va Zuhra", qirg'iz teatrida "Manas", qozoq teatrining "Qoblandi Botir", "Ko'zi Ko'rpeshev-Bayan suluv" singari ko'plab spektakllari sahna dostonchiligi an'anasin taraqqiy ettirdi. Buningdek spektakllar dastlabki yillarda yevropacha shakldagi milliy teatrlarning o'z yo'li va tuzilishiga ega bo'lishida ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Epos va teatr munosabatining yana bir alohida qismi borki, u og'zaki ijoddan yozma epik adabiyotga ko'chgan manbalar asosidagi spektakllarga borib taqaladi. O'ziga xos alohida tizimni yaratgan bu sahna asarlari mumtoz adabiyotimiz va muqaddas kitoblarimizdagi epik manbalarga tayangan. Milliy madaniyatning ilm, axloq, badiiy, diniy qadriyatlar kabi tarkibiy qismlarini o'zida aks ettirgan mumtoz adabiyot va muqaddas kitoblarning epik manbalariga yondoshuv sahna san'ati va xalq badiiy ijodiyoti munosabatida yangi sahifalarni ochadi.⁴⁴

Yangi O'zbek teatr tarixini davrlashtirishda siyosiy-mafkuraviy tamoyillardan kelib chiqib emas, balki san'atning ichki qonuniyatlariga tayangan holda ish ko'rish birdan-bir to'g'ri yo'l desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek teatrining XX asrdagi hayotini ham moziydan ajratib olib qarash noto'g'ri. Chunki bu davr ham, garchi Yevropa san'ati shakllariga nisbat berilgan, milliy o'ziga xoslik masalasiga hamma vaqt ham yetarli e'tibor qaratilgan bo'lmasa-da, o'sha katta tarixning davomidir. XX

⁴⁴ Qarang. Tojiboyeva O. Epos va teatr. O'zbek teatr san'atida milliy madaniy merosning o'rni. Ikkinci kitob – Toshkent. "SAN'AT" jurnal nashriyoti – 6 b.

asrda o‘zbek an’anaviy teatri G‘arb shaklidagi yangi teatr san’ati bilan yonma-yon yashadi. Yangi teatr o‘z shakllanish va rivojlanish jarayonida jahondagi ilg‘or sahna madaniyati tajribasi, yutuqlariga tayanish bilan birga milliy qadriyatlar, qadimiy teatr an’analaridan foydalandi, biroq o‘zi an’anaviy teatrga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmadi.⁴⁵ [2, 449 b.]

Zamonaviy o‘zbek teatr san’ati tarixini o‘rganish, yoshlarning boy ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarni o‘zlashtirib, milliy teatr an’analarini izchil davom ettirishi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin “Dovyurak va botir insonlar keljakda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi”, deb bejiz aytmagan.

Azaldan yurtimiz Markaziy Osiyo mintaqasi teatr san’atiga karvonboshilik qilgan, o‘ziga xos ijodiy labaratoriya vazifasini bajargan. Endilikda milliy madaniy merosni o‘rganish borasidagi tajribasi va salohiyatini ishga solib, yangi ijodiy izlanishlari va amaliy tajribalari bilan mintaqqa teatrlarining eng oldingi safida bo‘lmog‘i mumkin va shartdir.

Xalqimiz boy milliy madaniy merosi mazmunida komil inson haqidagi qarashlar va orzu-umidlar jamlanganki, uning tub mazmuni tolerantlik va bag‘rikenglikka asoslangan. Shunday ekan, og‘zaki va yozma merosga aylangan milliy epos mintaqqa teatrlarining o‘ziga xos va mos yo‘lini topishda yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim. Bu keljakda o‘zining samarali natijasini berishiga ishonamiz.

Bugungi kunda jamiyatimiz ijtimoiy madaniyatini ko‘taradigan, ruxiyatini mustahkamlaydigan va xalqning bo‘layotgan islohotlarni yanada teran tushunishga ko‘mak bo‘luvchi spektakllarga ehtiyoj kattadir. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad yoshlarning tarbiyasini mustahkamlash ularni katta hayotga tayyorlash. Xalqimiz orasidagi eng salbiy odatlardan biri bu loqaydlikdir. Yurtimizning ko‘p joylarida bejiz ogohlilik-davr talabi deb yozib qo‘yilmagan zero loqayd odam ko‘plab nohushliklarni keltirib chiqaradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziylilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati

⁴⁵ M.Qodirov, S.Qodirova. O‘zbek teatri tarixi. Darslik. “Niso poligrag” 2019-yil. 449 b.

va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbek teatr san'ati taraqqiyotida milliy madaniy merosga asoslangan manbalar muhim o'rinni tutadi. Teatr san'atida milliy madaniy merosni o'rganish masalasi mintaqalari bilan ijodiy hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash vazifalarini ham oldinga suradi. "2018-2022-yillarda davlat teatrining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yildagi 9-son qarori e'lon qilindi. Unda davlat teatrining faoliyatiga doir ko'pgina muhim vazifalar belgilab berildi. E'tiborli jihatlaridan biri shundaki 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan har bir davlat teatrinda quyidagilarni nazarda tutuvchi sahna asarlari yaratish uchun davlat buyurtmasi beriladi:

yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi spektakllar;

aholi, oila munosabatlari, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik kabi g'oyalar asosida tarbiyalovchi badiiy yuksak sahna asarlari;

yurtimizning buyuk siymolari, xalqimizning boy tarixi, vatanimiz mustaqilligiga ulkan hissa qo'shgan namoyondalar hayoti va ijodi har tomonlama, chuqur aks ettirilgan sahna asarlari; davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi hamda yoshlarning ma'naviy dunyosini mustahkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, ibrat bo'ladigan zamon qahramoni obrazini ifodalovchi spektakllar. [3]

Qaysi san'at xalq hayoti va orzu-umidini to'g'ri aks ettirsa hamda ana shu jarayonda xalqning madaniy, adabiy-badiiy merosiga mustahkam tayansa, o'sha san'at hayotbaxsh, o'sha san'at umrboqiyidir. Teatr san'atini cheksiz ummonga qiyoslasak bo'ladi. Ushbu tarixiy san'atni to'laqonli anglab yetish uchun uning ichiga chuqurroq kirib borish darkor. Teatr – ma'naviy va ma'rifiy olamimizning ajralmas ruhi, komillikka yetishishda shamchiroq vositalardan biri desam adashmagan bo'laman. Umrini ma'no bilan, qalbini esa ziyo bilan boyitmoqchi bo'lgan inson albatta teatr san'atiga oshno bo'lishi kerak deb hisoblayman. Buning uchun yoshlarni bolaligidan boshlab bu sehrli san'atga qiziqtirish lozim.

Yosh avlodning estetik tarbiyasi masalalari O'zbekiston qog'irchoq teatrleri ijodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Jazzi fuqarolarga mustaqillik mafkurasini singdirish, ularni barkamol, vatanparvar yoshlar etib tarbiyalash mamlakatimizda yangi davrning vazifasi bo'lib qoldi. Milliy o'zligini chuquqr his etuvchi, yangicha dunyoqarashga ega fuqarolarni shakllantirishda, umuman, teatr san'atining o'rni beqiyos, ahamiyati ulkan. Ayniqsa, insonga nafis tuyg'ulari go'daklik chog'laridan

boshlab singdirib borish, jajji bolajonlarimizni ezgulikka, go‘zallikka oshno etishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati katta.

San’at turlari orasida eng qadimi, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri, o‘zining boy an’analariga, tarixiga ega bo‘lgan betakror san`at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, uduumlari va milliy an’analarini o‘zida saqlagan holda asrlar davomida ularni boyitib, ularga sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Bu san’at turiga ulkan baho berib, taniqli olim O‘zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi, san`atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov shunday deydi: “Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit`a xalqlarining falsafasi, tasviriy san`ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir”⁴⁶.

Madaniyatimiz ko‘zgusi bo‘lgan teatr san’atini sof san’at taraqqiyoti nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil etish uning serqirra ijod namunalaridan yoshlarni bahramand qilish bugungi kunning dolzarb vazifazidir. Zero, bugungi yosh avlod ya’ni mustahkam e’tiqodga ega bo‘lgan shaxs-o‘zligini tanigan, millat va xalqini seuvuchi, ona yerini ardoqlovchi, jahon yangiliklaridan xabardor, ozod tafakkurli, milliy g‘ururi butun, hayot mashaqqatlaridan cho‘chimaydigan, yo‘lidan og‘ishmay, maqsad sari intiluvchan bo‘lishini davrning o‘zi talab qilmoqda. Shu bois, teatr san’ati orqali tomoshabin ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlarni yaratib yoshlarga ibrat bo‘ladigan, ularni jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, san’atga jalb etishida yangi kreativ yondoshuvlar orqali ularning qalbida vatanparvarlik, sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish teatr san’atining oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Mustaqillik davrida O‘zbek teatr san’ati milliy qadriyatlarni tiklash jarayoniga qo‘l urdi. Sho‘rolar davrida taqiqlangan asarlar teatrlarda sahnalashtirildi, yangi zamonaviy asarlar yaratish harakati boshlandi. Turli teatrlarda Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi, To‘ra Mirzoning “Amir Temur dramasi”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, “Yorqinoy” dramasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari asosida saxna asarlari yaratildi. Umuman o‘zbek teatr san’ati madaniyati yanada rivojlandi. [5, 266.] Aynan hozirgi kunda esa teatr san’atiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Zero, bugungi kunda teatr san’atini rivojlantirish orqali xalqimizni buyuk tarixdan bahramand etish, ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazish, ularning ma’naviy dunyosini rivojlantirish, mafkuraviy immunitetlarini mustahkamlash kabi muhim masalalarni hal etish ko‘zlangan. Ushbu sohaga qaratilgan e’tiborni muhtaram Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ushbu tashabbuslarning

⁴⁶ M.Qodirov.Teatr san`ati o`tmishdan lavhalar.Toshkent.Fan nashriyoti 1993- yil.163b.

aynan birinchisi yoshlarni adabiyotga, teatr va san'atning boshqa turlariga, musiqaga qiziqishlarini oshirish, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish. Butun viloyatlar bo'ylab ushbu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Teatr maskanlari, musiqa dargohlari, sport majmualari, kutubxonalar umuman barcha madaniyat va san'at maskanlari qaytadan zamonaviy rekonstruksiya qilindi yoki yangidan binolar qurildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O.Tojiboyeva Epos va teatr. O'zbek teatr san'atida milliy madaniy merosning o'rni. Ikkinci kitob – Toshkent. "SAN'AT" jurnal nashriyoti – 208 b.
2. M.Qodirov, S.Qodirova. O'zbek teatri tarixi. Darslik. "Niso poligrag" 2019-yil. 449 b.
3. "2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yildagi 9-son qarori. Lex.uz
4. M.Qodirov. Teatr san`ati o'tmishdan lavhalar. Toshkent.Fan nashriyoti 1993-yil.163b.
5. U.Qoraboyev. Milliy madaniyat masalalari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti. 2009, 288 b.